

**MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMI TARBIYACHILARINING BOLALAR BILAN OPTIMAL MUNOSABATDA BO'LIH UCHUN KASBIY TAYYORGARLIGI.**

**Yusupova Vasila Yangibayevna**

*Xorazm viloyati P.Y.M.O'M.M  
Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus  
ta'lim metodikalari kafedrası  
katta o'qituvchisi*

**Annotation:** *This article presents ideas and observations about the involvement of educators with children in the preschool education system and their professional readiness in optimal attitudes.*

**Key words:** *Subject, technology, preschool education, educator, pedagogue, mature generation, children.*

**Аннотация.** *В данной статье представлены мысли и мнения о работе воспитателя с детьми в системе дошкольного образования и профессиональной подготовки в оптимальном взаимодействии.*

**Ключевые слова.** *Наука, техника, дошкольное образование, воспитатель, педагог, зрелое поколение, дети.*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyachining bolalar bilan ishlashi hamda optimal munosabatda bo'lishda kasbiy tayyorgarligi haqida fikr va mulohazalar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar.** *Fan, texnika, maktabgacha ta'lim, tarbiyachi, pedagog, barkamol avlod, bolalar.*

Xozirgi kundagi global o'zgarishlar, fan texnika va axborot kamunikatsiya texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi XXI asr tarbiyachisidan pedagogik mahoratni, o'tkir irodani, pedagogik psixologik bilimlarni, o'z ishini chuqur bilishini va yuksak tafakkurini, siyosiy savoxonlikni, fikrlash doirasi keng va mulohazali bo'lishni talab qiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat ko'rsatayotgan tarbiyachilar tarbiya shakllarining optimal darajada tashkil etishni, barkamol shaxsni shakllantirish nazariyasini, turli yangi g'oyalar bilan boyitishni puxta bilishi lozim. Jamiyatda tarbiyachi modeli o'z mahoratiga ega bo'lishi tarbiya samaradorligini ta'minlovchi shaxs bo'libgina qolmasdan ayni vaqtda uning jamiyatdagi obro e'tiborini ham oshiradi, tarbiyalanuvchilarga unga nisbatan hurmat yuzga keladi. Kasbiy mahoratni oshirish yo'lida amaliy harakatlarni tashkil etish pedagogik faoliyatda yo'l qo'yilgan yoki qo'yilayotgan hatolardan holi bo'lish, tarbiyachilar, hamkasblar, hamda ota – onalar bilan munosabatda

muvofoqqiyatlarga erishish imkoniyatini yaratadi. Yuksak pedagogik mahoratga ega bo'lgan tarbiyachi bolani tushina olishi, unga nisbatan insonparvar munosabatda bo'lishi, har qanday pedagogik vaziyatni to'g'ri baholasa, yuzaga kelishi ehtimoli bo'lgan ziddiyatlarni o'z vaqtida bartaraf etishi, pedagogik faoliyatda hamisha ilg'orligi jamiyat taraqqiyoti hamda pedagogik jarayonda tarbiyalanuvchilar ongida singdirilayotgan ezgu g'oyalarni hayot bilan bog'lay olishi lozim.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan har bir pedagog va tarbiyachilar bolalar kamolotini ta'minlash o'z oldilaridagi muhim vazifa ekanligini teran his qilishlari lozim. Tarbiyachi va pedagoglar tashkilotdada turli xil faoliyat va ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etadilar. Bu jarayonda bolalar uchun (kopfort) qulay va shinam interfaol muhit yaratishi yuqorida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda zarur omil bo'lib xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalar faoliyati uchun interfaol muhit tashkil etish negizida insonparvarlik pedagogikasi tamoyillariga tayanish talab etiladi. Birinchi navbatda tarbiyachi bola shaxsiga tahdid qilmasligi zarur. Bunda bola va tarbiyachi o'rtasida o'zaro do'stlik, mehr-muhabbat o'rnatilishi talab etiladi. Tarbiyachi bolalarning ehtiyojlarini angelay olishi va ularni inobatga olishi lozim. Mashg'ulotni tashkil etish va o'tkazish jarayonida tarbiyachi va bolalar hamkorlikda ishlaydilar. Bu esa bolalarda faollikni, ma'suliyatni, mustaqillikni rivojlantiradi ayniqsa ayrim bolalarda shaxsiy ijodkorlik namoyon bo'ladi. Tarbiyachi agarda sof psixologik muhit yaratmasa yoki bolalarni shaxs sifatida hurmat qilmasa ta'lim-tarbiya berishda qo'yilgan maqsadga erishishda qiyinchiliklar ro'y beraveradi.

Tarbiyachi yosh avlodimizni xalqimizning munosib farzandlari qilib tayyorlashdek muhim, faxrli ish bilan birga mas'uliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyachining siyosiy etukligi bolalarni tarbiyalash sifati uchun xalq hamda jamiyat oldidagi o'z mas'uliyatini anglashga, ta'lim-tarbiya vazifalarini ijodiy yondashishga, o'z mahoratini doimo takomillashtirib borish va ishdagi o'rtoqlarini o'sishiga yordam beradi. Demak, tarbiyachi avvalo, bilimli bo'lishi, o'zi yashab turgan ulkan hayotini bilishi, tabiat va jamiyatning qonuniyatlarini tushunishi, ijtimoiy faol bo'lishi, umumiy va maktabgacha tarbiya pedagogikasini, bolalar ruhiyati va fiziologiyasini egallashi va bolalarning yosh xususiyatlarini bilishi kerak. Shuningdek, pedagogik tarbiyachining hodisalarni tahlil qilishga ilmiy nuqtai nazardan yondashuvi bolani har tomonlama rivojlantirish muvaffaqiyatini amalga oshirishga imkon beradi.

Barchamizga ma'lumki, shaxsning jamiyat hayotida faol ishtirok eta olishi unda shakllangan kompetensiyalarga bevosita bog'liq. Tarbiyachi

jamiyatda o'z o'rnini va ahamiyatini rivojlantirishda uning o'z faoliyati davomida egallagan bilim ko'nikma va malakalari muhim ahamiyat kasb etadi. V.A.Slastelin tariflashicha, pedagogik qobiliyat shaxsining kasbiy yo'nalishidagi yuqori ko'rinishi bilan har qanday faoliyat qobiliyatning asosiy ko'rsatkichi uning fikricha, maxsus umumlashgan malakalarni egallaganligidir. Tarbiyachilik kasbiy bilimlarining xususan pedagogik psixologik bilimlarining yetishmasligi yoki uning rad etilishi va hatti – harakati unga yetarlicha e'tibor bermaslik ko'pgina xollarda tarbiyachi tayyor materiallardan foydalanib o'z ustida izlnishlarni to'xtati qo'yadi. Bu esa tarbiyachi shaxsiga nisbatan bilimsizlik darajasini olib keladi. Buyuk nemis pedagogi Adolf Disterverg tarbiyachining jamiyatda o'z o'rnini egallash uchun doimiy ravishda fanlarni mutola qilish bilan shug'ullanishi haqida gapirib, shunday degan edi: "Tarbiyachi muntazam ravishda fan bilan shug'ullanmog'i lozim. Aks holda u qurigan daraxt va toshga o'xshab qoladi. Qurigan daraxt va tosh meva bera olmaganidek, kelajakda bunday tarbiyachidan hech qanday natija kutib bo'lmaydi." Tarbiyachi avvalo, bilimli bo'lishi o'zi yashab turgan tabiyat va jamiyatning qonuniyatlarini tushunishi, ijtimoiy faol bo'lishi, umumiy va maktabgacha tarbiya pedagogikasini, bolalar ruhiyati va fizologiyasini egallashi va bolalarning yosh xususiyatlarini bilishi kerak. Shuningdek, pedagog tarbiyachining hodisalarni tahlil qilishga ilmiy nuqtayi nazardan yondashuvi bolani har tomonlama rivojlantirish mufaqqiyatini amalga oshirishga imkon beradi.

Tarbiyachi maktabgacha ta'lim tashkilotida asosiy shaxs hisoblanadi. Butun g'oyaviy-tarbiyaviy ishlarning sifati va qolaversa, kelajak avlodni tarbiyalanganlik va bilish darajasi tarbiyachining g'oyaviy-siyosiy va ilmiy pedagogik tayyorgarligiga, javobgarlik hissiga, pedagogik mahoratiga va ishga bo'lgan ijodiy munosabatiga bog'liq. Bolaning o'quv faoliyatiga bo'lgan munosabati ko'proq uning tarbiyachi shaxsiga munosabati bilan belgilanadi.

- Tarbiyachining o'ziga xos xususiyati – uning yuksak kasb mahoratidir. Eng muhimi – bolaning ruhiyatini, yosh va o'ziga xos ruhiy fiziologik xususiyatlarini bilishdir.

- Bolalar bog'chasi dasturi bolalarning yoshini, jismoniy va ruhiy xususiyatlarini hisobga olib tuzilgani bilan har bir boladagi alohida ruhiy xususiyatning qay vaqtda va qanday namoyon bo'lishini oldindan ko'ra olmaydi, bu ish dasturda yaxshi tayyorlangan tarbiyachining zimmasiga yuklanadi.

- Tarbiyachi o'z guruhidagi har bir bolaning jismoniy tomondan yaxshi rivojlanishi, uning oliy nerv faoliyati yaxshi ishlashi, shuningdek aqliy,

axloqiy, mehnat, estetik tomondan normal tarbiyalanishi uchun yaxshi shartsharoit yaratadi. Tarbiyachi har bir boladagi o'ziga xos xususiyatlarni yaxshi bilgan holda undagi o'ziga xos xususiyatlarni (zararli bo'lsa) yo'qota borib, bolaga nisbatan qulay talab qo'yadi.

- Tarbiyachi har bir bolaning kelajakda haqiqiy inson bo'lishiga yordam beradigan sifatlarini va imkoniyatini rivojlantirishi lozim. Maktabgacha tarbiya yoshi davrida tarbiyachining bolaga shaxsiy ta'siri juda katta bo'ladi. Chunki bu davrdagi har bir ta'surot bolaning xotirasida bir umrga saqlanib qoladi.

Maktabgacha ta'lim tizimi tarbiyachilarining bolalar bilan optimal munosabatda bo'lish uchun kasbiy tayyorgarligi juda muhimdir. Bu tarbiyachilar uchun qulaylikni yaratish va bolalar bilan o'zaro munosabatlarning kuchayishining yaxshi usulidir. Bu maqsadga erishish uchun, tarbiyachilar quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishlari kerak:

1. Bolalar psixologiyasi Bu, bolalarni tushunish va ular bilan qanday munosabatda bo'lishi kerakligini tushunishga yordam beradi.

2. Maslahatlashish qobiliyatlarini rivojlantirish. Tarbiyachilar bolalar bilan oldindan kuzatishi, ularning fikr-mulohazalarini eshitishi va ular bilan maslahatlashish qobiliyatlarini rivojlantirishlari kerak.

3. Bolalarning o'qish va o'rganish uslublarini tushunish. Tarbiyachilar bolalar bilan foydali o'qish usullarini qo'llab-quvvatlash, ularning o'qish va tushunish qobiliyatlarini rivojlantirishlari kerak.

4. O'zlarini mustaqil fikr bildirishga tushuntirish. Tarbiyachilar bolalar bilan o'zaro munosabatlarda ularning fikr bildirish va o'z-o'zlarini ifodalashga imkoniyat berishlari kerak.

Bu tayyorgarliklar tarbiyachilar uchun bolalar bilan optimal munosabat yaratishda juda muhimdir va ularning o'zlashtirilganliklarini oshirishga yordam beradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Avliyakov N.X., Musaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar. – T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2008. – 164 b.

2. Axmedjanov M.M., Xo'jaev B.Q., Hasanova Z.D. Pedagogik mahorat- Buxoro Davlat universiteti, 2014

3. Qodirova F.R., Qodirova R.M. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: «Istiqlol», 2006.

4. Педагогика: энциклопедия. Ш жилд / тузувчилар: жамоа. -П 29 Тошкент: «Узбекистан миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2017. - 424 бет.

5. Г.И.ХАСАНОВА “Таълим жараёнида дастурлаштирилган ўқитиш технологиясидан фойдаланишнинг афзалликлари” Жиззах: 2020. 420 бет. 223- 225